

Xorijiy professor ishtirokida seminar tashkil qilindi

Bugungi kunda qishloq va suv xo'jaligida foydalanilayotgan traktorlar, kombaynlar, ekskavatorlar, buldozerlar va boshqa o'ziyurar mashinalarda gidravlik tizimlardan keng foydalaniladi. Gidravlik tizimlardan foydalanish traktor yoki boshqa o'ziyurar mashinani ekspluatatsion va texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Gidravlik tizimlarda ishchi suyuqlik energiyasidan foydalaniladi va bu tizimlarni massasi va o'lchamlari kichik, ishchi organ tezligini bosqichsiz o'zgartirish mumkin, tizim elementlari mustaqil joylashgan, yuklanishlardan ishonchli himoyalangan, xizmat ko'rsatish va boshqarish oson va bu yerda jarayonlarni avtomatlashtirish yengil kechadi.



Institutda faoliyat yuritayotgan "Xorijiy universitetlardagi innovatsion yechimlarni joriy etish orqali qishloq xo'jaligida muhandis kadrlarni tayyorlash dasturlarini takomillashtirish" nomli loyiha doirasida shu yil 26-30 iyul kunlari AQSH Shimoliy Dakota shtati universiteti professori Tom Bon ishtirokida QXM fakulteti professor-o'qituvchilari, doktorant va magistrantlari uchun "Gidravlik energiyadan foydalanish, traktorlar va qishloq xo'jaligi mashinalari gidravlik tizimlari" nomli kurs bo'yicha seminar-trening tashkil qilindi. Seminarda Toshkent davlat texnika va agrar universitetlari vakillari ham tinglovchi sifatida ishtirok etishdi.



Seminarda gidravlik tizim elementlari gidravlik motorlar, nasoslar, silindrlar, klapanlar ishlashiga batafsil to'xtalib o'tildi, tizimda ishlatiladigan suyuqliklar xossalari, gidravlik tizimni loyihalash va xususiyatlarini o'rganishda foydalaniladigan Automation Studio dasturi haqida ma'lumotlar berildi. Seminar trening yakunida faol ishtirok etgan 22 nafar tinglovchilar sertifikatlar bilan taqdirlandilar.

Traktorlar va avtomobillar kafedrasini axboroti